



TARBIYA JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Abdurahimjonova Sadoqat Alisher qizi

University of Business and Science universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2109-guruh 5-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning o'rni, ularning yosh avlod ma'naviy-axloqiy kamolotiga ta'siri hamda ta'lim-tarbiya tizimida milliy merosdan foydalanishning pedagogik asoslari tahlil etiladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, insonparvarlik va ma'naviy barqarorlikni shakllantirishda qadriyatlarning ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *milliy qadriyat, tarbiya, ma'naviyat, vatanparvarlik, urf-odat, an'ana, axloqiy tarbiya, milliy o'zlik.*

АННОТАЦИЯ: *В статье рассматривается роль национальных ценностей в воспитательном процессе, их влияние на духовно-нравственное развитие молодежи, а также педагогические основы использования национального наследия в системе образования. Освещается значение национальных традиций в формировании патриотизма, гуманизма и духовной устойчивости в условиях глобализации.*

Ключевые слова: *национальные ценности, воспитание, духовность, патриотизм, традиции, нравственное воспитание, национальная идентичность.*

ANNOTATION: *This article examines the role of national values in the educational process, their influence on the spiritual and moral development of young people, and the pedagogical foundations of integrating national heritage into education. The importance of national traditions in shaping patriotism, humanism, and spiritual stability in the context of globalization is highlighted.*

Keywords: *national values, education, spirituality, patriotism, traditions, moral upbringing, national identity.*



KIRISH

Tarbiya – bu jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib, u shaxsning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy kamolotini ta’minlaydi. Har bir xalqning o‘ziga xos milliy qadriyatlari mavjud bo‘lib, ular asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga meros sifatida o‘tib kelgan. Milliy qadriyatlar yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar deganda xalqning urf-odatlarini, an’analarini, marosimlarini, tili, diniy va ma’naviy qarashlarini, tarixiy merosi tushuniladi. Ular shaxsning milliy o‘zligini anglashiga, o‘z xalqiga hurmat va sadoqat ruhida ulg‘ayishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, oila muhitida beriladigan tarbiya milliy qadriyatlarning shakllanishida asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning o‘rni, avvalo, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda namoyon bo‘ladi. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehmondo‘stlik, mehr-oqibat, sabr-toqat kabi fazilatlar xalqimizga xos bo‘lgan qadriyatlar sirasiga kiradi. Ushbu fazilatlar yosh avlod ongiga singdirilganda, jamiyatda ijtimoiy muvozanat va o‘zaro hurmat muhiti qaror topadi.

Ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi ham tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega. Xususan, Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik, adolat va komillik g‘oyalari ilgari surilgan bo‘lsa, Abu Nasr Forobiy ta’limotida fozil jamiyat va komil inson tarbiyasi masalalari yoritilgan. Shuningdek, Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir” deya tarbiyaning jamiyat hayotidagi o‘rni naqadar muhim ekanini ta’kidlagan.

Globalashuv jarayonida turli madaniyatlar aralashuvi kuchayib borayotgan bir paytda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni yoshlar ongiga singdirish dolzarb masalalardan biridir. Chunki milliy o‘zlikni anglamagan shaxsda ma’naviy bo‘shliq yuzaga kelishi mumkin. Shu bois ta’lim muassasalarida milliy an’ana va qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy tadbirlar, davra suhbatlari, ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Maktab va oliy ta’lim muassasalarida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagogning roli katta. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi,



balki ma'naviy namuna bo'lishi lozim. U o'z faoliyatida xalq og'zaki ijodi namunalari, maqol va hikmatlardan, tarixiy shaxslar hayotidan samarali foydalanishi tarbiya samaradorligini oshiradi.

Milliy qadriyatlar yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Vatanga muhabbat, ona tiliga hurmat, tarixiy merosga ehtirom shaxsning ijtimoiy faolligini oshiradi. Bu esa mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy yetuk va jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglaydigan avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yurtimiz hududida azaldan ta'lim va tarbiyaga bir-biridan ajralmas uzviy bog'liq tushunchalar sifatida qaralgan. Bunga albatta, o'ziga xos ijtimoiy, siyosiy va tarixiy shart-sharoitlar sabab bo'lgan. Asrlar mobaynida shakllangan ustoz-shogird tizimi, ta'lim-tarbiya ishlari milliy – ma'naviyatimiz bilan hamohang holda olib borishi natijasida, u ahloq-odob normalari bilan boyitildi va bugungi kun ko'rsatib turgandek tarixda o'zini oqladi.

“O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Ushbu haqiqat davlat siyosati darajasigan ko'tarilishi zarur. Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma'rifatdir. Aql zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi”. Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, xususan ta'lim sohasidagi islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyatga bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizda jamiyat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlari aniq belgilab olindi.

Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi; - vatanparvarlik.

Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi. Har qanday mafkura kabi O'zbekiston Respublikasi milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri ham jamiyatda



ma'naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi. Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy - axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi.

Ta'lim-tarbiyaning ma'naviy negizlari mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimliliigi, mustahkam ma'naviyaxloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviyaxloqiy xulqatvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab etilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o'zgarishlar yuz berdi. Ta'lim-tarbiyaning milliy ma'naviy negizlari to'g'risida gapirilganda oilaning roli nihoyatda muhim ekanligini unutmaslik darkor. Sababi, inson dastlab oilada birinchi bor ta'lim va tarbiyani asoslari bilan tanishadi. Asrlar mobaynida shakllanib kelgan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizdan habar topadi. Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi. Shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o'zgarlar va o'zining hayoti ma'nosini anglagan holda o'tkazish kerakligi haqida ko'plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud. Bundan tashqari ta'lim muassasasida o'quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, ta'lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati o'quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi.



Shundan ko'rishimiz mumkinki, ta'lim-tarbiya tizimida milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish yuqorida ta'kidlangan jihatlar orqali o'z tarixini bilish, anglash va g'ururlanish hissini yoshlar ongida shakllantiradi. Prezidentimiz ta'kidlagani kabi, "Ta'lim-tarbiya — ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir"- deb ta'kidlashi negizida mazkur haqiqatlar gavdalanadi. Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasmlariga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamon qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi. Milliy ma'naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir. Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya - jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir. Ma'naviyat, milliy qadriyatlar va istikdol g'oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma'lum davrlarida ma'naviyat va milliy g'oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydonga chiqadi.

XULOSA

Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning o'rni beqiyosdir. Ular yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlaydi, milliy o'zlikni shakllantiradi va jamiyat barqarorligiga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni tarbiya jarayoniga chuqur integratsiya qilish – barkamol avlodni voyaga yetkazishning muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jahongir Burhan Burhanovich. O'zbekistonda ilm-fan holati, taraqqiyot yo'nalishlari (1980-2010 yillar). Monografiya. "Qaqqus media" nashriyoti, Toshkent. 2020. -b.58



2. Karimov I. A. YUksak ma'naviyat - engilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat". 2008. b. 19
3. Mirziyoevning SH.M. O'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil, 30-sentabr.
4. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrbo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997, 137-bet.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, Abdulla qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
6. Ziyonet